



LOTIN TILIDA KLINIK TERMINLARNING TO'G'RI QO'LLANISH YUZASIDAN FIKRLAR

¹Qurbonova Zulfiya

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Pediatriya fakulteti talabasi,

²Maxmudov Zafar Mardanovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrası assistenti.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7773458>

ARTICLE INFO

Received: 18th March 2023

Accepted: 26th March 2023

Online: 27th March 2023

KEY WORDS

Klinik atamalar, suffiks, prefiks, meditsina, so'z yasovchi qo'shimcha, tibbiy terminologiya, yunon-lotin dubletlari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Lotin tili va tibbiy terminologiya fanida klinik atamalarni qo'llash uslubi va so'z yasash usullari yoritilgan. Bo'lajak vrachlar meditsinada ko'proq klinik atamalarni ishlatadi, shu sababli ularni qo'llash talablarini bilish lozim. Klinik atamashunoslikni o'rganishda asosan suffiks, prefix kabi so'z yasovchi qo'shimchalar o'rganiladi. Klinik atamalar yasama va qo'shimchali so'zlar orqali ifodalanadi. Maqolada lotin tili va tibbiy terminologiya fanida klinik atamalarni, yunon-lotin dubletlarini ko'rib o'tamiz.

Kirish:

Bene dignoscitur, bene curatur.

Klinik terminologiya (yunon. klinike –yotgan bemorlarga g'amxo'rlik qilish) tibbiy terminologiyaning eng keng qismidir. U turli mutaxassisliklar bo'yicha bir qator klinik fanlar shartlarini o'z ichiga oladi: terapiya, jarrohlik, nevrologiya, psixiatriya, ginekologiya, oftalmologiya va boshqalar. Klinik iboralarni o'zlashtirish uchun:

Birinchidan –lotincha anatomik so'zlarning grekcha sinonimlarini;

Ikkinchidan –oxirgi ibora elementini organ va to'qimalarning patologik o'zgarishini bildirib, tekshirish yoki davolashni diagnostik usullarini amaliy qo'shilishini;

Uchinchidan –affiks (prefiks va suffiks)lar qo'shimcha axborot berishini bilish kerak.

"Klinik terminologiya" tushunchasi ostida tibbiy va biologik bilimlar bo'limining bir qator terminologiyalarining keng qamrovli kompleksi mavjud bo'lib, u bemor organizmga tegishli barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Lotin va yunon tillarining imkoniyatlari va ixchamligi o'zbek tilida bir nechta so'z bilan tarjima qilish kerak bo'lgan narsalarni birlashtirishga imkon beradi, masalan, stomatitis, itidis, f –og'iz silliq pardasining yallig'lanishi; cholecystoscopy, ae, f –o't pufagining ichki devorlarini tekshirish.

Adabiyotlar bilan ishlash va tadqiq qilish:

Affiksial va ildiz terminoelementlari mavjud.

1) affiksial terminoelementlar -bu axborot mazmuni bo'yicha ko'pincha ildiz terminoelementlarga teng bo'lgan prefikslar yoki qo'shimchalar, masalan, dys-buzuqlik, har qanday funktsiyani buzish (dyspepsia, ae, f –ovqat hazm qilishning buzilishi); Sifatlar va



raqamlar, masalan, monophobia, ae f -yolg'izlik qo'rquvi sifatida ishlatilishi mumkin; homogenus, a, um -bir xil, bir xil narsalardan shakllanuvchi [1].

2) ildiz terminoelementlar -yunoncha (ba'zan lotincha) otlarning va sifatlarning ildizlari yoki asoslari. Ular so'zning boshida, o'rtasida va oxirida mavjud bo'lishi mumkin, masalan, splenomegalia, ae, f va megalosplenia, ae, f -taloq ortishi, kattalashuvi; haemostasis, is, f -qon to'xtatilishi; anaemia, ae, f -kam qonlik, anemiya [2].

Mustaqil ma'noga ega bo'lgan ba'zi so'zlar oxirgi terminlar sifatida ishlatilishi mumkin: ptosis, is, f -ptozis, tushish: blepharoptosis, is, f -blefaroptoz, yuqori ko'z qovoqlarining tushishi; gastroptosis, is, f -gastroptoz, oshqozonning tushishi; necrosis, is, f -nekroz, to'qima yoki organning o'lishi; osteonecrosis, is, f -osteonekroz, suyak qismining nekrozi.

Kelib chiqishi yunoncha bo'lgan so'zlar bilan bir qatorda, klinik terminologiyada kelib chiqishi lotincha so'zlarni o'z ichiga oladi, masalan, resectio, onis, f -organning bir qismini olib tashlash; Klinik iboralar grekcha va lotincha so'zlarning qo'shilishidan kelib chiqqan:

cancer (lotincha so'z) -xavfli o'sma, carcinoma (grekcha so'z) -xavfli o'sma;

tuberculosis (lotincha so'z) -sil, phthisis -sil (grekcha so'z).

Klinik iboralarda eng ko'p qo'llaniladigan suffikslar [3].

N	Suffiks	Ma'nosi	Misol
1.	-itis	yallig'lanish harakteridagi kasalliklarni bildiradi	nephritis -buyrakning yallig'lanishi (nefrit); gastritis -oshqozon shilliq pardasining yallig'lanishi (gastrit)
2.	-oma	to'qima nomlari asosiga qo'shib, shu to'qimadan kelib chiqqan shish, o'sma ma'nosini bildiradi	lipoma -lipoma, yog' to'qimasidan rivojlanadigan xafsiz o'sma; myoma -mioma, mushak to'qimasidan tashkil topgan xafsiz o'sma
		shish bilan bog'liq bo'lmagan bir qancha kasalliklarda qo'laniladi	glaucoma -ko'z kasalligi, ko'z ichki bosimining ko'tarilishini karakterlaydi
3.	-ema	turli harakterdagi kasalliklar nomlarida uchraydi	erythema -qon oqib kelishi tufayli terining ayrim qismlarining qizarishi; empyema -yiringning toshishi bilan bo'shliqning yallig'lanishi (tananing biron bo'shlig'iga yiring yig'ilishi)
4.	-osis	1) organizmda biror narsaning me'yoridan ortib ketishi, ko'payishi	acidosis -kislolaning me'yoridan ko'p bo'lishi; erythrocytosis -qon tarkibida qizil qon hujayralarining me'yoridan ko'p bo'lishi
		2) organizmda bo'lmaydigan narsalarning to'planib qolishi	cystolithosis -suydik pufagida tosh paydo bo'lishi; broncholithosis -bronxlarda chang va toshlarning to'planib qolishi
		3) yangi paydo bo'lgan kasallik ma'nosini	arthrosis -bo'g'imdagi kasallik; chondrosis -tog'aydagi yangi kasallik



		anglatadi	
5.	-iasis	uzoq muddatli va yallig'lanishga oid bo'lmagan kasalliklarni bildiradi	neprolithiasis -buyraklardagi surunkali tosh kasalligi (nefrolitiazis); elephantiasis -limfaning dimlanib (qovurilgan jo'jaga o'xshab) qolishi bilan bog'liq bo'lgan to'qimalarning patologik o'sishi va rivojlanishi (elefantiaz)
6.	-ismus	1) organizmda biror narsadan zaharlanish jarayonini ifodalaydi	botulismus -ovqatdan zaharlanish (botula, ae, f - kolbasa, qazi); saturnismus -qo'rg'oshin changi yoki bug'idan zaharlanish (saturnum, i, n -qo'rg'oshin)
		2) biror narsaga ruju qo'yish, moyillik ma'nosi anglatadi	alchogolismus -alkogol (spirtli ichimlik)ga ruju qo'yish (alchogolos -ichimlik)
		3) biror kasalikga mansublik ma'nosin ifodalaydi	somnambulismus -uyquda yurush (lunatizm); daunismus -daun kasalligiga mansublik; albinismus -albinoslik kasalligiga mansublik (albus, a, um -oq)

Fan, usul, tekshirish, davolash, kasallik ma'nolarini anglatuvchi grekcha suffikslar[4].

Grekcha AE	Ma'nosi
-logia (logos -so'z, nutq, tushunish, fan)	fan, fanning bir bo'limi
-logo (-logia)	nutqqa tegishli
-scopia (skopeo -ko'rish, tekshirish)	maxsus asbob bilan tekshirish (ko'rish)
-metria, -metr- (metreo -o'lchash)	o'lchash
-graphia (grapho -chizish, yozish)	organning rentgen jarayoni
-gramma (gramma -tasvir)	rentgen surati (natijasi)
-therapia (therapeia -davolash)	davolash (xirurgik yo'lsiz)
noso- (nosos -kasallik)	kasallik
patho-, -pathia (pathos -his qilish, sezish, kasallik)	kasallik, his qilish
alg-, -algia, -algisia (algo -og'riq, kuchayib boruvchi og'riq)	og'riq
-odynia (odyne)	og'riq
-agra	og'riq

Organ va to'qimalarning patologik o'zgarishlarini, terapevtik hamda xirurgik usullarni ifodalovchi grekcha termin elementlar [5].

Grekcha	O'zbekcha
A. -iatria (iatreia)	davolash haqidagi fan
-iater (iatros)	davolovchi vrach
-ectasia, -ectasis (ektasis)	kengayish
-ptosis (ptosis -tushish)	pasayish, tushish



steno-, -stenosis (stenos -tor, stenosis -torayish)	tor, torayish
sclero-, sclerosis (skleros -qattiq); sklerosis (zichlashish)	qattiqlash, zichlashish
-malacia (malakos -yumshoq; malakia -yumshash)	yumshab ketish
-lysis, -lyt (lysis -parchalanish, xalos qilish, uzish)	1. parchalanish, yemirilish 2. organi xirurgik yo'l bilan chandiقدan xalos qilish
-plastica (plastike -tabiiy yopishtirish, tiklash)	nafis operatsiya, qayta tiklash
-tomia (tome -kesish, ochish)	kesib organi ochish
-tomo- (tomos -qatlam, lavha)	qatlam, kesma
-ectomy (ektome -kesib olib tashlash)	olib tashlash
-stoma (stoma, stomatos, -teshik ochish)	sun'iy teshik ochish
-pexia (pexis -mustahkamlash)	biriktirish, mustahkamlash
-r(h)aphia (rhaphe -chok)	tikish, chok qo'yish
B. -schisis (grek. parchalash)	organning parchalanishi
-rhexis (grek. yorilish)	organning yorilishi
-desis (desis -bog'lanish, mustahkamlanish)	xirurgik operatsiya jarayonida organ holatini mustahkamlash
-eurysis (eurys -keng)	kengaytirish usuli
-eurynter (euryno -kengaytiruvchi)	kengaytiruvchi asbob
-clasia (klasis -buzish)	organ va tana qismlarini xirurgik yo'l bilan buzish
-centesis (kentesis -igna sanchish)	igna sanchish
-privus (lat. organ bilan bog'liq)	organni olib tashlash bilan bog'liq operatsiya

Xulosa: Har bir bo'lajak vrach klinik atamalarini bilishi zarur. Turli ma'no anglatuvchi atamalar yasash va ularni tarkibiy qismlarga bo'lib tahlil qilish ko'nikma va malakalarni ko'rib chiqdik. Ular yordamida klinik atamalar yasadik va tahlil qildik. Talabalarning klinik terminlarni mukammal bilishi tibbiy terminlarni amaliyotda to'g'ri qo'llashga olib keladi. Bu esa o'z navbatida vrach lug'at fondini boyitib boraveradi. Maqola boshida takidlaganimizdek, aniq tashxis to'g'ri davolash demakdir.

References:

1. Maxmudov Z. M., Sharipov B. S. Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik tamoyillari va uning asosi haqida fikrlar //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1028-1033.
2. Maxmudov Z. M. Lotin tili va tibbiy terminologiyani o'rganishda o'zbek tili grammatikasining o'rni //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 756-759.



3. Mardanovich M. Z., Salimoviche S. B., Arzimurodoviche B. D. Reviews of effective use of educational methods in teaching latin and medical terminology //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 381-386.
4. Mardanovich M. Z., Salimovich S. B., Arzimurodovich B. D. Modern Methods of Teaching Latin and Medical Terminology in Uzbekistan //International Journal of Development and Public Policy. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 190-192.
5. Mardanovich M. Z. Teaching correct pronunciation of latin as an international language of medicine in medical education institutions //Archive of Conferences. – 2022. – C. 30-31.
6. Maxmudov Z. M., Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish istiqbollari, Urganch davlat universiteti, "Ilm sarchashmalari", 118-120-betlar.
7. Sharipov , B. ., Makhmudov , Z., & Buriyev , D. Influence of the latin language on the formation of medical terminology. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 2(1), 16–20. <http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/3155>
8. Sharipov , B. ., Makhmudov, Z. ., & Buriyev , D. Features of teaching latin to students medical universities studying in english. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 2(1), 21–25. <http://www.econferences.ru/index.php/tafps/article/view/3156>
9. Sharipov , B. ., Makhmudov, Z. ., & Buriyev , D. The role of teaching latin in the course of subject training of future foreign language teachers, science and innovation in the education system International scientific-online conference, Tom 2 № 1 (2023): Science and innovation in the education system
10. Sharipov , B. ., Makhmudov, Z. ., & Buriyev , D., Tibbiyot universitetlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, Science and Innovation in the education system, International scientific-online conference, Tom 2 № 1 (2023)